



# ELEKTR XAVFSIZLIGI QOIDALARI

## PAST KUHLANISH (kuchlanish 1000 V gacha)

Elektr kuchi, havo, bino va yer namligi, insonning elektrdan jarohatlanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi


## YUQORI KUHLANISH (kuchlanish 1000 V dan yuqori)

### Elektr toki urishi to'rt darajaga bo'linadi:

- I - muskullar keskin qisqarishi natijasida odam tok ta'siridan chiqib ketadi va hushini yo'qotmaydi;
- II - muskullar keskin qisqarishi natijasida odam hushini yo'qotadi, ammo yurak va nafas olish faoliyati to'xtamaydi;
- III - muskullar keskin qisqarishi natijasida odam hushini yo'qotib, nafas olish tizimi yoki yurak urishi to'xtab qoladi.
- IV - klinik o'lim holati, bunda insonda hech qanday hayot alomatlari ko'rinmay qoladi.



**Shikastlanganni  
qutqarishda birinchi  
navbatda elektrni  
tarmoqdan uzing**




Shikastlangan kishini tok ta'siridan qutqarish vaqtida juda ehtiyot bo'lish lozim (simga tegmasdan, qo'lga rezinali qo'qop, izolyatsion oyoq kiyim kiyib, har qaysi simni alohida qirgish kerak)

### Yuqori kuchlanishli tok ta'siridan qutqarish yo'llari





Shikastlangan kishini yerdan ko'tarish yoki qurilmaning tok urgan qismidan ajratish uchun, qo'llarga rezinali qo'qop va oyoqlarga izolyatsion etik kiyib, kuchlanishga mo'ljallangan shtangadan foydalanish kerak



### Past kuchlanishli tok ta'siridan qutqarish yo'llari

Shikastlangan kishini tok o'tkazuvchi qismidan ajratish yoki simni undan ajratish uchun quruq kiyim, quruq arqon, quruq yog'och taxta yoki o'zidan tok o'tkazmaydigan boshqa biror narsadan foydalanish kerak.

**Bu maqsadda metall yoki ho'l buyumlarni ishlatish mutlaqo yaramaydi!**



1000 V gacha bo'lgan elektr qurilmadan jabrlanuvchining kiyimini quruq joyidan tortib olish yo'li bilan tok ta'siridan qutqarish.

Tok ta'sirida qolgan kishining quruq etagi (kiyimining badanga tegmay turgan joyi)dan tortib simdan ajratsa ham bo'ladi, ammo bunda uning kiyimi quruq bo'lishi lozim.

1000 V gacha bo'lgan elektr qurilmalarda simlarni kesish orqali tok ta'sirida qolgan jabrlanuvchini qutqarish.

Past kuchlanishli simlarni dastasi quruq bolta bilan chopib uzish yoki izolyatsiyalangan tegishli asbob bilan qirgish kerak.



Yerga qisqa tutashuv bo'lgan hududda to'g'ri harakatlanish:  
A) yerga qisqa tutashuv bo'lgan hududdan uzoqlashish  
B) oyoqlarni to'g'ri harakatlanish (oyoq izlari) tartibi

### ELEKTR TOKIDAN HIMOYALOVCHI VOSITALAR



Himoya bosh kiyimi va niqob

Dielektrik oyoq kiyim

Dielektrik qo'qop

Dielektrik rezina va yog'och tagliklar

Dielektrik shtanga

Dielektrik qaychi

**XAVFSIZLIK QOIDALARIGA AMAL QILMASLIK,  
OG'IR OQIBATLARGA OLIB KELISHI MUMKIN**

YUKLAB OLING

